



## MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-oktabr 2021  
Ma'ullandi: 20- oktabr 2021  
Chop etildi: 25- oktabr 2021

## KALIT SO'ZLAR

*Iqtisodiyot, turizm, qaror, infratuzilma, strategiya, rivojlanish, axborot markazi, soha, ekskursiya.*

Bugun mamlakatimizda turizm sohasi yildan-yilga shiddat bilan o'sib bormoqda. Aytish lozimki bugungi kunda turizm sohasi orqali mamlakat iqtisodida o'sish ko'rsatkichi yuqori bo'lib, serdaromad sohalarning biriga aylanmoqda. Yurtboshimiz tomonidan sohaga katta e'tibor qaratilmoqda. Tarixiy obidalar, obyektlar qayta rekonstruksiya qilinmoqda. Yurtimizning turistik salohiyatini oshirish, yirik malakali kadrlar tayyorlash ishlariga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga 2018- yil 28-dekabrda qilgan murojatnomasida bildirilgan takliflarni amalga tatbiq etish maqsadida hamda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar

## TURIZM SOHASINING MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDAGI O'RNI

Erkin G'ulomxasanov<sup>1</sup>, Baliyeva Rushana Axrorovna<sup>2</sup>

<sup>1</sup>QarDU o'qituvchisi, <sup>2</sup>QarDU talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5594909>

## ANNOTATSIYA

*Ushbu turizm sohasini jahon va mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o'rni haqida so'z yuritilgan.*

strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq:

2019-2025- yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasida turizm faoliyati sohasidagi normativ huquqiy bazani takomillashtirish, turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni imolementatsiya qilish kabi vazifalarning belgilab qo'yilgani ham sohaga qaratilgan e'tiborning yorqin dalilidir.

Zamonaviy g'arb iqtisodiyotida turizm murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida qaraladi, turistik industriya, turistik siyosat va iqtisodiyot bir butunlik sifatida qaraladi. Bunda iqtisodiy muammolar turizmning ijtimoiy ekologik aspektlari bilan birgalikda tahlil qilinadi. Turizm rivojlanishidagi hozirgi zamon



tendentsiyalari uning ham jahon iqtisodiyotiga ham alohida mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotiga ta'siri ortib borayotganligini ko'rsatmoqda. Turizm aholining o'ziga hos ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirib milliy iqtisodiyotning yirik mustaqil sohaga aylanib bormoqda. Ushbu ehtiyojlarning xilma-xilligi tufayli nafaqat turistik korxonalar balki boshqa soha korxonalari ham qatnashib xalq xo'jaligi kompleksi rivojiga multiplikativ ta'sir etadigan omillardan biri sifatida turizm namoyon bo'ladi. O'zbekistonda turizm industriyasi rivoji pul tushunlari ko'payishi ishsizlik darajasini pasaytirish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy holatini barqarorlashtirishning bir yo'nalishi sifatida davlat tomonidan tartibga, jarayonlarini faollashtirish, turistik xizmatlar bozorini o'rganish, turistik ta'lim tizimini kengaytirish, muayyan mintaqalar rivojini ta'minlaydigan dasturlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Turizm umumiy iqtisodiy o'sishga kam rivojlangan hududlarning rivojlanishiga ko'maklashadi. Yaxshi rivojlanmagan hududlarda turistik markazlar ochib ko'pgina davlatlarning asosiy usuli hisoblanadi.

Turizmga bo'lgan talab oshishi va dam olish rivojlanishi asosan, standart ommaviy turpaket shaklida bo'lib, o'z navbatida bunga 1958-yildan boshlab reaktiv havo laynerlarida uchish va arzon yonilg'i sabab bo'ldi. Bundan tashqari sanoatlashgan mamlakatlarda aholi soni o'sishi, haq to'lanadigan ta'tillar ko'payishi va aholi daromadlari ko'payishi alohida rol o'ynaydi.

1950-1980-yillarda keluvchilar soni 25 mln kishidan 285 mln kishigacha ya'ni 11.5 barobarga oshib, o'rtacha yillik sayyohlar kelishi o'sishi 8,4 % ni tashkil etdi. Daromad esa 2 mlrd dollardan 102,372 mlrd dollargacha ya'ni 51 marotaba oshdi. Turizmdan tushadigan tushumlar o'rtacha yillik o'sishi 14% ni tashkil etdi. Dunyo bo'yicha (1950-1999-yillarda) 80-yillar boshida jahon iqtisodiyotida pasayish kuzatilib bunga sabab 1985 yilgacha xalqaro sayyohlar qisqarishidir.

80-yillarning ikkinchi yarmida holat yangilandi. "sovuq urush" tugashi turizm induktrisiyasini rivojlanishiga yangi turtki berdi. 1987-1990-yillar mobaynida o'rtacha yillik sayyohlar kelishi o'sishi 7.8%ni turizmdan tushum o'sishi 17 % ni tashkil etdi.

90-yillar turizm rivojlanishi uchun noqulay ketdi. Bunda Iroqdagi urush asosiy rol o'ynadi. Urush boshlanishi bilan bu mintaqa sharqiy O'rta yer dengizi va Shimoliy Afrikaga sayyohlar sayohatga chiqishi to'xtab qoldi. Hamda xalqaro turizm suratlari sekinlashdi. Bu muammo sabali xalqaro turizm 1991-yilda daromad o'sishi 1.5 % tushum esa 2.7% ni tashkil etdi. 1992-yilga kelib yana ko'tarildi. O'sha yili daromad 8 %ni, tushum esa 13.5 % ga oshdi.

1992-1999-yillar davrida turizm sohasi aytarli o'zgarishlarsiz rivojlandi. Sayyohlar 503.6mln kishidan 657 mln kishigacha ya'ni 25% ga oshdi.

O'rtacha yillik sayyohlar o'sishi 4.4 % ni tashkil etdi. Bu davrda daromad 308.6 mlrd dollardan 455 mlrd dollargacha ya'ni 44 % ga oshdi. Tushumlarning o'rtacha yillik o'sishi 5.5 % ni tashkil etdi. 1999-yilda sayyohlar kelish o'sishi surati 1998-yilga



taqqoslaganda 1 punktga ko'tarildi, tushumlar o'sishi surati 2.3 %ni tashkil etdi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida turizmning milliy modelini shakllantirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Ushbu modelda ta'kidlashicha mamlakatda rivojlantirilayotgan turistik bozor boshqa har qanday bozorlar kabi mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy vaziyatiga ta'sir ko'rsatadi. U mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda investitsiya va kapital oqimini ta'minlash darajalarini aniqlashda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda, asosan xususiy va tijorat kompaniyalari turistlarga xizmat ko'rsatadi. Biroq har qanday sharoitda ham davlat optimal iqtisodiy va hududdiy zaminni yaratgan taqdirdagina turizm rivojlanishi muhim. Agarda davlat kasbiy tayyorgarlik masalalari, tabiiy va madaniy muhitni muhokama etish axborot va reklama ishlari va rasmiyatchilikni soddalashtirish kabilari bilan shug'ullanmasa, u holda turizm kutilgandek rivojlanish darajasiga erisha olmaydi. Bunda davlat tomonidan turizmni rivojlantirish, turistik xizmatlar, xizmatlar bozorini shakllantirish iqtisodiy tartibga solish usullari va richaglarini qayta isloh etish, turizmni tashkiliy boshqaruv strukturalarini takomillashtirish, uning eksport salohiyatini oshirish va eng asosiysi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish kabilarga tegishli uslubiy va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizdagi turizm sohasining iqtisodiy ahvolini tashkil qilish uchun uning rivojlanishidagi ikki bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin. 1-bosqich 1986-yildan 1991- yilgacha bo'lgan davr va 2-bosqich 1992-yildan keyingi davrni o'z ichiga oladi.

Bunday davrlarga bo'lish respublika turizm taraqqiyotidagi ikki eng muhim davrni ajratib olishga imkon beradi. 1-bosqichda turizm respublika kasaba uyushmasiga bo'y sunar, uning bosh organi O'TKEU-O'zbekiston Respublikasi turizm va ekskursiyalar bo'yicha Kengashi edi. Bu davr turizm chora tadbirlarini to'liq xo'jalik hisobi, o'z-o'zini qoplash o'z-o'zini moliya bilan ta'minlashga o'tkazish bilan bog'liq bo'ldi.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, joriy yil O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora – tadbirlari" to'g'risidagi farmoni ham O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi "Turistlarga xizmat ko'rsatish markazi" davlat unitar korxonasi turizm axborot markazlari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Vazirlar mahkamasining qaroriga muvofiq:

1.Xalqaro turizm yarmarkalari va ko'rgazma yangi turdagi xizmat va mahsulotlar bilan etish uchun turizm sohasi subyektlari tanlab olish tartibi to'g'risidagi nizom.

2.Fuqarolar yig'inlariga "Turizm mahallasi", "Turizm ovuli", "Turizm qishlog'i" maqomini berish tartibi to'g'risidagi nizom

3.Turizm sohasida mutaxasislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibi to'g'risidagi nizom.

4."Turizm fidoyisi" ko'krak nishoni to'g'risidagi nizomi kabi qonun farmonlarning joriy etilishi sohaga qaratilayotgan e'tiborning yorqin dalili.



Respublikamizda “O`zbekturizm” Milliy Kompaniyasi bir necha yillik faoliyati davomida milliy va xalqaro turizmni qayta tiklash, moddiy-texnik va meyoriy bazani mustahkamlash va kengaytirish, yangi turizm mashrutkalrni ishlab chiqish, ekskursiya mavzularini yangilash mavjud . turizm toza va tempinglarini takomillashtirish va yangilarini tashkil qilish qo`shimcha xizmatlar ko`rsatish hajmini oshirish bo`yicha ma`lum miqdordagi ishlarni amalga oshirdi. 1992-yildayoq “O`zbekturizm” Milliy Kompaniyasi tizimida 195 korxonona bor bo`lib, ular ichida jami 10 ming o`rinlik 34

mehmonxonona, turbazalar, hempinglar, motellar bor edi.

Bugun chin ma`noda men O`zbekiston fuqarosiman deya oladigan har bir kishi borki, mamlakatimiz taraqqiyoti yo`lida o`z hissasini qo`shishi, mamlakatimizning jahon hamjamiyatida munosib o`rin egallashi uchun tinimsiz mehnat qilishi lozim. Ko`ksimizda urayotgan yurak avvalo Vatan deya urmog`i lozim. Bugun har birimiz Vatanimiz taraqqiyoti yo`lida bir yoqadan bosh chiqarib o`z hissamizni qo`shishimiz lozim deb bilamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mamatkulov X.M., Bektemirov A.B., Tuxliyev I.S., Norchayev A.N. Textbook "Xalqaro turizm", Samarkand, 2007.
2. Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2018 y.
3. Raximov Z.O. Turizm tadbirkorlik.O`quv qo`llanma.-Samarqand:SamISI, 2019,232bet
4. Tuxliyev N., Abdullayeva T. Formalnosti v sisteme turizma Respubliki Uzbekistan - T.: «O`zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2007.
5. Tuxliyev N., Abdullayeva T. Menedjment i organizasiya biznesa v turizme Uzbekistana. – T.: O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.
6. Tuxliyev N., Abdullayeva T. Nasionalniye modeli razvitiya turizma –T.: O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.
7. Tuxliyev N., Abdullayeva T. Osnovi bezopasnosti v turizme. –T.: O`zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.
8. www.gov.uz – O`zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali
9. www.lex.uz – O`zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi.
10. www.press-service.uz – O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti
11. www.UNWTO.org – BTTning rasmiy sayti
12. www.mfer.uz – O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti